

PhD., dots. Maqsd Rustamov
Toshkent moliya instituti

MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLAR VA KICHIK BIZNESGA BERILGAN KREDITLARNING EKONOMETRIK TAHLILI

Kichik va o‘rta biznes segmenti bank uchun foydali mijozdir, lekin rivojlanayotgan davlatlarda makroiqtisodiy beqarorlik, kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini rivojlangan davlatlarning kichik va o‘rta biznes sub’ektlari bilan taqqoslaganda asosiy muammo sifatida ularni moliyalashtirish ko‘zga tashlanadi. Biz biznes rivoji bilan shug‘ullanadigan davrda yashayapmiz - bu biznes uchun beriladigan kreditlar sonini ko‘rsatadi. Maqolada kichik biznes sub’ektlariga berilgan kreditlarning hajmini ortishiga ta’sir etuvchi omillar ekonometrik tahlil qilingan. Shuningdek, amalga oshirilgan tahlillardan tegishli xulosalar shakllantirilib kichik biznesni kreditlash hajmini ortib borishi kelgusida yaxshi samara berishi borasida takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: kredit, model, valyuta kursi, inflyasiya.

PhD, Associate Prof. Maksud Rustamov
Tashkent institute of finance

ECONOMETRIC ANALYSIS OF MACROECONOMIC INDICATORS AND SMALL BUSINESS LOANS

Abstract. The small and medium business segment is a profitable customer for the bank, but macroeconomic instability in developing countries and the financing of small and medium-sized businesses is a major problem compared to small and medium-sized businesses in developed countries. We are living in a time of business growth - this is the number of loans for business. The article provides an econometric analysis of the factors influencing the growth of loans to small businesses. Also, the relevant conclusions were drawn from the analysis, and suggestions were made that the increase in lending to small businesses will have a positive effect in the future.

Key words: credit, model, exchange rate, inflation.

“Kambag‘allikni kamaytirish – bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg‘otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish, yangi ish o‘rinlari yaratish bo‘yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishdir”

Sh.Mirziyoev

Kirish

Jahon tajribasi ko‘rsatishicha, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida, aholi bandligi va daromadini oshirishda eng asosiy omil tadbirkorlikni rivojlantirish ekanligi ma’lum. Sir emaski, iqtisodiyotning jadal sur’atlar bilan rivojlanishi uning tarkibidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari ulushining ko‘payib borishi bilan belgilanadi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushining kun sayin ko‘payib borishi esa, o‘z navbatida, mamlakatda yaratilgan ishbilarmonlik muhitiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘ladi. Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 55,7 foizni tashkil etmoqda [11].

Xalqaro valyuta jamg‘armasining ma’lumotlariga ko‘ra, “bugungi kunda

dunyoda 90 foiz korxonalar kichik va oʻrta biznesga tegishli boʻlib, ular jahonning 63 foiz aholisini ish bilan taʼminlamoqda. Yevropa Ittifoqi miqyosida kichik va oʻrta biznesning umumiy salmogʻi 99,8 foizni tashkil etgani holda, aholini uchdan ikki qismini ish bilan taʼminlamoqda [12]”. Shuningdek, dunyo mamlakatlarida kichik biznesning aksariyat qismi oilaviy korxonalar shaklida ish yuritmoqda. Yevropa davlatlari yalpi milliy mahsulotining 40-50 foizini, Osiyo mamlakatlarida 65 foizdan 82 foizgachasini, Lotin Amerikasida 70 foizga yaqinini oilaviy biznes ishlab chiqaradi. AQSh iqtisodiyotida uning ulushi 95 foizdan ziyod miqdorni tashkil etadi [9]. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamlakat rivojida va aholi bandligini taʼminlashda kichik biznesning ulushi juda kattaligidan dalolat berib turibdi.

Kichik biznes subʼektlariga kredit ajratishda unga taʼsir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili yetarlicha oʻrganilmaganligi va undan kelib chiqadigan natijalar asosida xulosalar shakllantirish bilan bogʻliq muammolarning mavjudligi va ularning yechimiga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borishni taqozo etadi.

Adabiyotlar sharhi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini kreditlash va uning hajmini ortishini ekonometrik tahlili boʻyicha bir qator xorijiy hamda respublikamiz olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan, ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Lekin kichik biznesga berilgan kreditlarga valyuta kursi va inflyatsiyaning taʼsiri undan kelib chiqadigan natijalar yetarlicha tahlil etilmagan.

Iqtisodchi olim Mustafa U.Karakaplan “COVID-19 inqiroziga javoban AQSh hukumatida kichik biznes va ularga yordam berish uchun ish haqini himoya qilish dasturini (PPP) yaratdi. 1 million AQSh dollarigacha boʻlgan PPP kreditlari emitent banklari uchun bir xil hajmdagi oddiy kichik biznes kreditlari uchun oʻrnini toʻldiruvchi boʻlganligini tahlil qilgan. Shuningdek, u 1 million dollargacha boʻlgan qoʻshimcha PPP krediti eng kichik firmalarga qoʻshimcha dollarga teng anʼanaviy kreditlarga multiplikativ taʼsir koʻrsatishini tahlil qilgan [8]”.

Shuningdek avtoregressiv taqsimlangan kechikish (ARDL) modeli oʻnlab yillar davomida (iqtisodiy) oʻzgaruvchilar oʻrtasidagi munosabatlarni bitta tenglamali vaqt seriyali oʻrnatishda modellashtirish uchun qoʻllaniladi deb iqtisodchi olimlar Engle va Granger, Hassler va Woltersning ilmiy ishlarida qoʻllanilgan. Uning mashhurligi, shuningdek, statsionar boʻlmagan oʻzgaruvchilarning kointegratsiyasi xatolarni tuzatish jarayoniga teng ekanligidan kelib chiqadi va ARDL modeli EC shaklida qoʻllaniladi [6].

T.Adrian va boshqa olimlarning tadqiqotlarida biznesning har qanday turdagi kredit mablagʻlariga boʻlgan talabining bir xil siklik xususiyatlarining identifikatsiya qilgan va unga koʻra kredit oqimlarining Umumiy iqtisodiy siyosat noaniqlik indeksi (Overall Economic Policy Uncertainty index) innovatsiyalariga nisbatan munosabatini tahlil qilgan va bu kredit taʼminoti shartlarining oʻzgarishi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Olim taklif etgan modelning spetsifikatsiyasi bilan rasmiy sinov shuni koʻrsatadiki, EPUning bir xil standart

og'ish o'sishi zarbadan bir yarim yil o'tgach javobning eng yuqori cho'qqisida ekstensiv marjada 3,2% ga kredit taklifining qisqarishiga olib kelishi ma'lum bo'ldi [13].

Tahlil va natijalar

Ushbu maqolaning tahliliy qismi 2012-2021 yillardagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va kichik biznes soni hamda unga ajratilayotgan kreditlar hajmining o'sishini ta'siri o'rganilgan.

Tanlangan ko'rsatkichlarning matematik va iqtisodiy ko'rsatkichlar hamda xususiyatlarini hisobga olgan holda, ekonometrik modellashtirish keng qamrovli yordamchi testlar bilan ARDL (Autoregressive distributed lag model) usulida qurishga qaror qilindi. Mahalliy iqtisodiyotda kichik va o'rta biznes rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarni tanlashda barcha ta'sir kanallari hisobga olinadi. Ekonometrik model quyidagicha tavsiflanadi:

ARDL - Avtoregressiv taqsimlangan kechikish modeli odatda bir tenglama doirasidagi vaqt oraliqlari ma'lumotlari bilan dinamik munosabatlarni tahlil qilishda ishlatiladi. Bog'liq o'zgaruvchining joriy qiymati o'zining o'tgan davrdagi realizatsiyalariga - avtoregressiv qismga, shuningdek qo'shimcha tushuntirish o'zgaruvchilarning joriy va o'tgan qiymatlariga - taqsimlangan kechikish qismiga bog'liq bo'lishiga ruxsat beriladi. O'zgaruvchilar statsionar, nostatsionar yoki ikki turning aralashmasi bo'lishi mumkin. Muvozanatni tuzatishda ARDL modeli uzoq muddatli va qisqa muddatli ta'sirlarni ajratish va kointegratsiyani yoki umuman olganda, o'zgaruvchilar o'rtasida uzoq muddatli munosabatlar mavjudligini tekshirish uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu axborot mezonlari asosida ARDL modelini optimal miqdordagi kechikishlar bilan baholash uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu test yangi hisoblangan chekli namunali kritik qiymatlar va taxminiy p-qiymatlarini o'z ichiga olgan postestimation buyrug'i "estat ectest" sifatida amalga oshiriladi. Ushbu muhim qiymatlar model konfiguratsiyasining keng doirasini qamrab oladi va adabiyotda mavjud bo'lgan oldingi jadvallarni almashtiradi. Ular namuna hajmini, tanlangan kechikish tartibini, tushuntirish o'zgaruvchilari sonini, va cheklanmagan yoki cheklangan deterministik model komponentlarini tanlash bilan amalga oshiriladi. ARDL buyrug'i modelni baholash uchun Stataning regress buyrug'idan foydalanadi. Natijada, chiziqli (vaqt seriyali) regressiyalar uchun standart keyingi baholash buyruqlari bilan spetsifikatsiya sinovlari o'tkazilishi mumkin va dinamik prognozlarni olish uchun prognoz buyruqlar to'plamidan foydalanish mumkin.

1-jadval

2017-2020 yillar oralig'ida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va kichik biznes sub'ektlariga berilgan kreditlar va ularning o'sish dinamikasi [10-11]


№	Sana	Kichik tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar (mlrd.so'm)	Valyuta kursi (AQSh dollari)	Kreditlar bo'yicha foiz stavkasi	Inflyatsiya ko'rsatkichi
		Y	X1	X2	X3
1	yanv.17	1182,5	3239,62	13,90	9,60

№	Sana	Kichik tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar (mlrd.so‘m)	Valyuta kursi (AQSh dollari)	Kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi	Inflyatsiya ko‘rsatkichi
2	fev.17	1773,8	3294,74	14,10	10,30
3	mar.17	1683,5	3452,30	13,60	10,80
4	apr.17	1966,7	3623,07	14,10	11,30
5	may.17	1467,6	3734,91	14,30	12,50
6	iyun.17	2107	3874,48	14,3	13,5
7	iyul.17	1598,9	3986,55	15,00	15,20
8	avg.17	1699,5	4098,37	15,80	15,90
9	sen.17	1865,3	8100,00	16,20	15,80
10	okt.17	1327,7	8060,80	16,80	15,60
11	noya.17	1673,2	8067,62	18,10	16,20
12	dek.17	1218,9	8096,33	18,50	18,80
13	yanv.18	1643,3	8136,67	20,30	20,10
14	fev.18	2482	8186,95	20,10	19,80
15	mar.18	2182,7	8163,46	20,00	19,80
16	apr.18	3483,8	8100,92	19,60	19,60
17	may.18	3230,4	8068,20	19,80	19,00
18	iyun.18	3301,6	7944,07	20,00	17,70
19	iyul.18	3032,2	7846,27	19,90	16,30
20	avg.18	3003,9	7783,05	20,30	15,70
21	sen.18	2944,3	7842,93	20,40	16,20
22	okt.18	2133,2	8179,66	21,60	16,30
23	noya.18	1776,1	8249,97	21,70	16,50
24	dek.18	1435,5	8314,85	21,80	14,30
25	yanv.19	2385,2	8337,07	22,60	13,00
26	fev.19	2615,2	8401,53	24,20	13,50
27	mar.19	4228,3	8392,96	24,30	13,60
28	apr.19	4565,1	8419,62	23,80	13,70
29	may.19	5147,7	8448,89	24,10	13,70
30	iyun.19	5456	8513,57	24,20	13,60
31	iyul.19	5844,5	8574,74	24,80	13,50
32	avg.19	6340,8	8704,87	24,20	16,50
33	sen.19	4618	9384,57	24,30	16,00
34	okt.19	4562	9446,65	24,20	16,30
35	noya.19	4516,1	9467,27	24,50	15,60
36	dek.19	5151	9510,99	24,80	15,20
37	yanv.20	2375,5	9507,89	25,80	14,30
38	fev.20	2786,5	9541,74	25,60	13,50
39	mar.20	3548,3	9513,84	24,80	13,60
40	apr.20	3153	9590,10	24,10	14,50
41	may.20	2944,7	10129,39	24,00	14,00

№	Sana	Kichik tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar (mlrd.so‘m)	Valyuta kursi (AQSh dollari)	Kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi	Inflyatsiya ko‘rsatkichi
42	iyun.20	4602,8	10148,31	23,70	14,20
43	iyul.20	3298,8	10184,73	20,60	14,40
44	avg.20	3531,3	10209,86	20,50	11,70
45	sen.20	5016,8	10270,08	19,80	11,70
46	okt.20	5749,1	10339,68	19,20	11,50
47	noya.20	5285,1	10366,86	19,70	11,30
48	dek.20	6097,9	10427,38	18,80	11,10

1-jadval ma’lumotlari tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlkat kichik biznesga berilgan kreditlar hajmi ortish tendensiyasini nomoyon qilgan. Bunga mos ravishda valyuta kursi ham oshganligini ko‘rishimiz mumkin, lekin shunga qaramasdan inflyatsiya ko‘rsatkichi pasayganligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu jadval ma’lumotlarini biz amalga oshirmoqchi bo‘lgan tahlilimizda foydalanamiz.


Uzoq muddatli munosabatlar: Ba’zi vaqt qatorlari muvozanat kuchlari tufayli bir-biriga bog‘langan bo‘lsa ham, individual vaqt seriyalari sezilarli darajada siljishi mumkin.




1-rasm. Kichik tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar vaqt oralig‘ida o‘shish dinamikasi [10, 11] (mlrd.so‘m)

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarni bir tizimga keltirish maqsadida biz quyidagi amallarni amalga oshirdik:

lags(#) kovariatsiyalar ro‘yxatiga qo‘shiladigan kechikkan farqli shartlar sonini belgilaydi



2-rasm. Kichik tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar vaqt oralig'ida o'sish dinamikasi bir tizimga "Lag" qo'llab olingan natija



3-rasm. AQSh dollarining vaqt oralig'ida o'sish dinamikasi [10, 11] (mlrd.so'm)

Tadqiqot jarayonida kichik tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar hajmini “Kengaytirilgan Dikki-Fuller birlik-ildiz testi”ni amalga oshirdik unga ko‘ra quyidagicha tahlillar olindi.

. dfuller y

Dickey-Fuller test for unit root Number of obs = 47

Test Statistic	Interpolated Dickey-Fuller		
	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value
Z(t)	-3.600	-2.938	-2.604

MacKinnon approximate p-value for Z(t) = 0.4642

Kengaytirilgan Dikki-Fuller testini bu - o‘zgaruvchi birlik-ildiz jarayonini kuzatib boradi. Nol gipoteza o‘zgaruvchining birlik ildiziga ega ekanligi va muqobil o‘zgaruvchining statsionar jarayon tomonidan yaratilganligidir. Ixtiyoriy ravishda doimiyni chiqarib tashlashingiz, trend atamasini kiritishingiz va regressiyaga o‘zgaruvchi farqining kechikkan qiymatlarini kiritishingiz mumkin.

Iqtisodchi olimlar Dikki va Fuller [7] o‘zgaruvchining birlik ildiziga egaligini yoki ekvivalenti bilan o‘zgaruvchining tasodifiy yurishni kuzatib borishini tekshirish uchun tartibni ishlab chiqdi. Hamilton (1994, 528-529) kengaytirilgan Dikki-Fuller testi qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan to‘rt xil holatni tavsiflaydi. Nol gipoteza har doim o‘zgaruvchining birlik ildiziga ega ekanligidan iborat. Ular nol gipoteza drift terminini o‘z ichiga oladimi yoki test statistikasini olish uchun ishlatiladigan regressiya doimiy muddat va vaqt tendentsiyasini o‘z ichiga oladimi yoki yo‘qligi bilan farqlanadi. Beketti ushbu testlarni qanday o‘tkazishni ko‘rsatadigan qo‘shimcha misollar beradi. Haqiqiy model shunday deb taxmin qilinadi.

Modelning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

$$y_t = \alpha + y_{t-1} + u_t$$

Bu erda u_t mustaqil va bir xil taqsimlangan nol o‘rtacha xato atamasini. Birinchi va ikkinchi holatlarda, ehtimol, $\alpha = 0$, bu driftsiz tasodifiy yurishdir. Uchinchi va to‘rtinchi holatlarda biz α ni cheklanmagan holda qo‘yib, drift terminiga ruxsat beramiz.

Dikki-Fuller testi modelni moslashtirishni o‘z ichiga oladi:

$$y_t = \alpha + \rho y_{t-1} + \delta t + u_t$$

Oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) bo‘yicha, ehtimol $\alpha=0$ yoki $\delta=0$ ni o‘rnatish. Biroq, bunday regressiya ketma-ket korrelyatsiya bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Buni nazorat qilish uchun kengaytirilgan Dikki-Fuller testi shakl modeliga mos keladi

$$\Delta y_t = \alpha + \beta y_{t-1} + \delta t + \zeta_1 \Delta y_{t-1} + \zeta_2 \Delta y_{t-2} + \dots + \zeta_k \Delta y_{t-k} + \epsilon_t$$


Bu erda k - lags() variantida koʻrsatilgan kechikishlar soni. Noconstant varianti bu regressiyadan α doimiy atamasini olib tashlaydi va trend opsiyasi sukut boʻyicha kiritilmagan vaqt trendi δ ni oʻz ichiga oladi. $\beta=0$ ni test qilish $\rho=1$ ni tekshirishga teng yoki ekvivalenti y_t birlik ildiz jarayoniga amal qiladi.

. dfuller dy

Dickey-Fuller test for unit root Number of obs = 46

Test	Interpolated Dickey-Fuller		
	1% Critical Value	5% Critical Value	10% Critical Value
$Z(t)$	-8.205	-3.607	-2.941

MacKinnon approximate p-value for $Z(t)$ = 0.0000



4-rasm. Kreditlar boʻyicha foiz stavkasi vaqt oraligʻida oʻsish dinamikasi [10, 11]

4-rasm maʼlumotlari tahlili shuni koʻrsatadiki, 2017 yilda kreditlar boʻyicha oʻrtacha tortilgan foizlar 13,90 ni tashkil etgan boʻlsa, 2020 yil dekabr holatiga koʻra 18,80 ni tashkil etib, 4,9 ga oshganligini koʻrishimiz mumkin.

Tanlangan koʻrsatkichlar boʻyicha statsionarlik xossasi tekshirilgandan soʻng, ular asosida model tuzish mumkinligi isbotlandi. Barcha koʻrsatkichlar nostatsionar boʻlib, bir marta integratsiyalashgandan soʻng statsionarlikka aylanishini hisobga olib, modelda koʻrsatkichlarning laglarini qoʻshamiz. STATA dasturidan foydalanib, bir necha modellar ishlab chiqildi. Oʻttizga yaqin ishlab

chiqilgan modellar asosida, ularining t-test va F-test p qiymatlari asosida optimal model tanlandi. Ma’lumki p qiymatlar 0,05 dan kichik bo’lishi kerak.

```
. reg lny Llny Llnx2 Llnx3
```

Source	SS	df	MS	Number of obs	=	47
Model	7.74303262	3	2.58101087	F(3, 43)	=	43.61
Residual	2.54515849	43	.059189732	Prob > F	=	0.0000
				R-squared	=	0.7526
				Adj R-squared	=	0.7354
Total	10.2881911	46	.223656328	Root MSE	=	.24329

lny	Coef.	Std. Err.	t	P> t	[95% Conf. Interval]
Llny	.6573548	.1050307	6.26	0.000	.4455402 .8691694
Llnx2	.6426197	.2712243	2.37	0.022	.0956437 1.189596
Llnx3	-.4438625	.2229113	-1.99	0.053	-.8934061 .005681
_cons	2.014059	.8291482	2.43	0.019	.3419219 3.686195

Modelni qo‘yidagi holatda tasvirlash mumkin:

$$lny = 0.65Llny + 0.64Llnx2 - 0.44Llnx3 + 2.01$$

Model natijalariga ko‘ra, kichik tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlarining bir foizga ortishi, bir yildan keyin bu sohadagi kreditlar bo‘yicha talab 0,65 % ortishi aniqlandi.

Kreditlar bo‘yicha foiz stavkasi bo‘yicha qiziq holat mavjud ekan, ya’ni foiz stavkasining bir foizga ortishi bir yildan so‘ng tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlarining 0,64% ortishiga xizmat qiladi.

Inflyatsiya hajmi tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlarining o‘shishiga teskari ta’sir etib, 0,44 foizga kamayishiga olib keladi.

Хулоса ва таклифлар

Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub’ektlarini kreditlash hajmining ortishi va uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha olib borgan tahlillar va kelingan xulosalar natijasida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Kichik biznes sub’ektlarini kreditlash hajmining ortib borishi natijasida mamlakatda yaratiladigan YaIMning ortishiga olib kelishi ma’lum bo‘ldi;
2. Model natijalariga ko‘ra, kichik tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlarining bir foizga ortishi, bir yildan keyin bu sohadagi kreditlar bo‘yicha talab 0,65 foiz ortishiga olib kelishi ma’lum bo‘ldi;
3. Kreditlar bo‘yicha foiz stavkasining bir foizga ortishi, bir yildan so‘ng tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlarining 0,64 foizga ortishiga xizmat qilishi ma’lum bo‘ldi;
4. Inflyatsiya hajmi tadbirkorlarga ajratiladigan kreditlarining o‘shishiga teskari ta’sir etib, 0,44 foizga kamayishiga olib kelishi isbotlandi;
5. Kichik biznesni kreditlashda xizmatlar paketini taklif qilish kerak xizmatlar paketini ichiga biznes rejadan tortib kredit olib qaytilgunga qadar

bo‘lgan jarayonlarni ichiga olish kerak;

6. Kichik biznesni kreditlashda bankning talab qilib olinguncha depozitlarni mijozlar soni bo‘yicha ma’lum bir davrlarda tahlil qilib uning qoldig‘i doirasida kredit berish uchun resurs sifatida foydalanishga ruxsat berish;

7. Ajratilayotgan kreditlarni rasmiylashtirish va uning so‘ndirilishigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni nazoratda ushlab turish uchun kreditlarni boshqarish xizmati tashkil qilish;

8. Tijorat banklari har doim ilg‘or xorij tajribasini o‘rgangan holda o‘zining kichik biznes sub’ektlarini kreditlash mexanizmlarini takomillashtirib borishlari lozim;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” PF-4947-sonli Farmoni;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi “2020 - 2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-5992-sonli Farmon;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 20 dekabrda “Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-55-sonli Qarori;

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 23 martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3620-sonli Qarori;

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyulda “O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3832-sonli Qarori

6. Engle va Granger, 1987; Hassler va Wolters, 2006.

7. Dickey D.A., and W.A.Fuller 1979. Distribution of the estimators for autoregressive time series with a unit root. Journal of the American Statistical Association 74: 427–431

8. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0378426621001825?via%3Dihub> Mustafa U.Karakaplan “This time is really different: The multiplier effect of the Paycheck Protection Program (PPP) on small business bank loans” Journal of Banking & Finance Volume 133, December 2021, 106223.

9. Oilaviy tadbirkorlik: ish o‘rinlarini o‘zimiz yaratamiz. <https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/3671>

10. www.cbu.uz O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti. <https://cbu.uz/oz/arkhiv-kursov-valyut/>

11. www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Statistika qo‘mitasi rasimiy sayti.

12. <http://www.imf.org/external/pubs/ft/sdn/2015/sdn1504.pdf>

13. T.Adrian, P.Colla, H.S.Shin Which financial frictions? Parsing the evidence from the financial crisis of 2007 to 2009 Acemoglu D., Parker J., Woodford M. (Eds.), NBER Macroeconomics Annual, vol. 27, University of

Chicago Press (2013), pp. 159-214.
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0378426620302454#bib0001>

14. Rustamov M. (2018) "About interest rates of bank credits and impact on small business," *International Finance and Accounting*: Vol. 2018: Iss. 4, Article 29. <https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2018/iss4/29>